

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

O'QUVCHI-YOSHLAR O'RTASIDA OITS KASALLIGINI OLDINI OLISH OMILLARI

Eraliyev Oblaqul Botirovich,
Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi Hamshiralik ishi kafedراسi mudiri

Bobojonov A'lam Mansurovich,
Kimyo fani o'qituvchisi

Davlatova Muqaddas Samandar qizi.
Pastdarg'om Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat
salomatligi texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada OITS va OIV infeksiyasi, yuqtirish yo'llari, kasallikni oldini olish haqida ma'lumotlar va yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: OITS, OIV, kasallik, inson, virus, organizm, shifokor, sog'lik, immunitet, tekshiruv, tizim, davr, bakteriya, qon.

FACTORS FOR THE PREVENTION OF AIDS AMONG YOUTH STUDENTS

Anatation:

This article provides information about AIDS and HIV infection, ways of transmission, disease prevention, and recommendations for promoting a healthy lifestyle among young people.

Key words: AIDS, HIV, disease, human, virus, organism, doctor, health, immunity, examination, system, period, bacteria, blood.

Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS) — retrovirus guruhiga mansub virus qo'zg'atadigan kasallik; ikki davrga bo'linadi: OITV infeksiyasi va bevosita OITS (SPID) davri. OITV infeksiyasi davri odam organizmida virus bor, lekin kasallik alomatlari hali namoyon bo'lmagan davr. Virus deyarli bir vaqtda Parijda professor



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Lyuk Montanye hamda AQShda professor Robert Gallo boshchiligidagi olimlar tomonidan kashf etilgan (1983-yil). Bu virus odamning immunitet tizimiga tanlab ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, SD4+ immun hujayralariga qirg'in keltiradi. Virus odam organizmiga tushgach, 2—3 kundan so'ng, 25—30% hollarda birlamchi infeksiya davriga xos alomatlar kuzatilishi mumkin. Bu "o'tkir serokonversiya sindromi" deb ataladi, bunda harorat ko'tariladi, tunda terlash, bo'g'imlar va bosh og'rig'i, loxaslik, qayt qilish, ich ketishi, badanda, ayniqsa, uning yuqori qismida toshmalar paydo bo'lishi mumkin. Bu alomatlar odam organizmiga tushgan virus ta'siriga immunitet tizimi ma'lum darajada javob qaytarish reaksiyasi bilan bog'liq. Lekin bu davrda antitelolarni aniqlash natija bermaydi, chunki immunitet tizimining javobi hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Kasallikning bu davri 8—10 yilgacha, ba'zan undan ham uzoq davom etishi mumkin.

Virus rivojlanishining darajasi odamlar orasida keng tarqalgan va ko'plab omillarga bog'liq. Ushbu omillar quyidagilardir:

- Bemorning yoshi;
- Tananing OIVdan o'zini himoya qilishi qobiliyati;
- Dori vositalari mavjudligi;
- Boshqa infeksiyalar mavjudligi;
- Bemorda genetik kasalliklar mavjudligi;
- Virusning ayrim shtammlariga qarshi himoya.

OIV QANDAY YUQADI

Jinsiy aloqa orqali yuqishi — bu infeksiyalangan jinsiy suyuqliklar (og'iz bo'shlig'i, rektal, genital yoki shilliq pardalari) bilan aloqa qilganda yuzaga kelishi mumkin. Bu vaginal, oral va anal kabi himoyalangan jinsiy aloqa vaqtida sodir bo'lishi mumkin.

Perinatal yuqishi — ona tug'ruq paytida, homiladorlik paytida, shuningdek, emizishda infeksiyasini bolaga yuqtirishi mumkin.

Qon quyish orqali yuqishi — hozirgi vaqtda qon quyish orqali OIV yuqtirish xavfi rivojlangan mamlakatlarda juda ehtiyotkorlik bilan tekshiruv va ehtiyot choralari tufayli juda past. Shu bilan birga, giyohvand moddalarni qabul qiluvchilar yoki bemorning qoni bilan zararlangan shpritslarni qayta ishlatish oqibatida kasallik yuqish xavfi juda yuqori.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hozirgi kunda amaliyotda OITV infeksiyasi tashhisini qo'yish qonda kasallik virusiga qarshi paydo bo'lgan antitelolarni aniqlash — immun ferment taxlili (IFT) reaksiyasiga asoslangan. Dastlabki antitelolar virus organizmga tushgach, 3 haftadan so'ng shakllana boshlasa ham, qo'llanadigan diagnostikumlar ularni ilg'ay olmaydi. Shu bois, odamga ushbu infeksiya ilashgani to'g'risida virus organizmga tushganidan so'ng 90 kun o'tkazib olingan tekshirish natijasiga qarab xulosa chiqarish mumkin.

OITS OITV infeksiyasining yakuniy davri hisoblanadi. Virus bilan organizm o'rtasidagi kurash uzoq davom etib, virusning ustunligi bilan tugaydi. Shu vaqtdan OITS davri boshlanadi. Bu davrda odam organizmi har qanday mikrobgacha bardosh berish xususiyatini yo'qotadi. Jumladan, nafas, me'daichak, siydik yo'llarida doimo mavjud bo'lgan va kasallik qo'zg'ata olmaydigan mikroblar ham faollashib, turli xastaliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ularning namoyon bo'lishi organizmda yuzaga kelgan OITS holati bilan bog'liq bo'lgani uchun, ushbu guruhga kiruvchi kasalliklar jamlangan holda OITS bilan bog'liq (assotsiirlangan) infeksiyalar deb ataladi. Bular bakterial infeksiyalar, zamburug'li kasalliklar, viruslar qo'zg'atadigan kasalliklar, Kaposhi sarkomasi va hokazo.

Kasallik virusi infeksiya yuqqan odamning qonida, erkaklar shahvatida, ayollarning jinsiy a'zolari chiqindilarida va ko'krak sutida bo'ladi. Shuning uchun OITV, asosan, uch xil yo'l bilan yuqadi: qon orqali, jinsiy aloqa vositasida va infeksiya yuqqan onadan homilasiga vertikal yo'l bilan o'tadi.

OITS bilan og'riganlarning ko'pchiligini narkomanlar (giyoxvandlar), fohishalar, gomova biseksuallar tashkil etadi. OITS organizmga jinsiy aloqa, parenteral muolajalar (nosteril igna, shprints va boshqa tibbiy anjomlar ishlatilganda), inifitsirlangan qon va uning o'rnini bosuvchi dorilarni qo'llash, a'zo va to'qimalarni ko'chirib o'tkazish (transplantatsiya) vaqtida, shuningdek, virusni yuktirib olgan onadan homilaga homiladorlik davrida, tug'ish jarayonida va go'dak emi-ziladigan bo'lsa, ko'krak suti bilan yuqib qolishi mumkin.

O'zbekistonda OITV/OITS bilan bog'liq masalalar Sog'liqni saqlash vazirligining OITV/OITS xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Respublika. OITV/OITS markazi, Qoraqalpog'iston Respublikasi OITV/OITS markazi, Toshkent shahar va viloyatlar OITV/OITS markazlari o'z xududlarida ushbu soha faoliyati bilan bog'liq barcha profilaktik, epidemiologik, lab. tekshiruvi, davolash tadbirlarini olib boradi. Har bir markaz qoshida o'z ixtiyori bilan lab. tekshiruvi uchun kelganlarni sir saqlagan holda tekshiradigan anonim xonalar mavjud. Maqsadli



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

guruhlargiyohvandlar va seksiolog xodimlari bilan virus yuqib qolishining odsini olish maqsadida xufiyona ish olib boradigan Ishonch punktlari (IP) ham ishlaydi.

Profilaktikasi. Ushbu infeksiya keng tarqalgan kasalliklardan biri bo'lgani uchun muhofaza tadbirlari ijtimoiy hayotning barcha soha vakillari ishtirokida olib borilishi lozim. Har bir yigit-qiz bu infeksiyaning tarqalish yo'llari, uning oldini oladigan tadbirlardan xabardor bo'lishi va o'zini undan ehtiyot qilishi kerak.

O'zbekistonda OITSni (SPID) yuqtirib olganlarning umumiy soni 45 mingni tashkil qildi, shundan 55 foizi erkaklar va 45 foizi ayollardan iborat. Kasallikka chalinganlarning 14 foizi esa 18 yoshga to'lmagan bolalarga to'g'ri kelmoqda. Kasallanish ko'rsatkichi eng yuqori hudud esa Toshkent shahri hisoblanadi. Shifokorlar OITS yuqishi ehtimoli yuqori holatlar va uni oldini olish choralari haqida ma'lumot berdi.

Shuningdek, hozirda bu kasallik ko'proq erkaklar orasida uchraydi. Bunga sabab so'nggi yillarda erkaklarning xorijga ishlashga borib, u yerda noto'g'ri turmush tarziga berilishi, ya'ni jinsiy aloqa yo'llari orqali OITSni yuqtirib olishi ko'paygani ekanligi aytilgan. Shu bilan birga shifokor kasallikning ilk belgilari tana haroratining ko'tarilishi bilan boshlanishini, agar o'sha holatda OITS aniqlansa, unga qarshi kurashish oson bo'lishini ta'kidladi.

Kasallikning bir odamdan ikkinchi odamga yuqishi sabablari o'rganilganda, «tibbiy va notibbiy muolajalar ham ahamiyatga egaligi, kesuvchi yoki sanchuvchi jihozlar ishlatilishi natijasida yuqish holatlari uchrashi» keltirilgan.

Go'zallik salonlarida yoki stomatologlarda gigiyenaga amal qiladigani ham, qilmaydigani ham bor. Chunki spirt bilan artgan bilan bu infeksiyani o'ldirib bo'lmaydi. Xususan, go'zallik salonlarida amalga oshiriladigan tatuaj, tatiurovka, persilga o'xshagan notibbiy amaliyotlarida bemor odamga ishlatilgan kesuvchi jihoz stirillanmasdan boshqa odamga foydalanilsa, kasallik yuqishi uchun sharoit yaratib beradi.

Shifokorlarning so'zlariga ko'ra, barcha nikohlanuvchi yoshlar majburiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tishi belgilangan. Shu vaqtda nikohlanuvchi insonlarni bemorlar va sog'lomlar guruhiga ajratib olish oson bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda OITS aniqlangan har bir bemorga kasallik oqibatlarini, uni boshqalarga yuqtirmaslik uchun sog'lom turmush tarziga rioya qilishlari haqida tavsiya beriladi. Ta'kidlanishicha, bunday bemorlar soqol, tirnoq oluvchi uskunalardan alohida foydalanishlari kerak. Oila a'zolari va boshqa shaxslar bundan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

foydalanishi mumkin emas. Lekin boshqa shaxslarga qasddan yuqtirish holatlari bo'lsa, unga nisbatan javobsharlik belgilangan.

Ma'lumot uchun Jinoyat kodeksining 113-moddasiga ko'ra, agar shaxs o'zida OITS infeksiyasi borligini bila-turib o'zga shaxsga kasallikni yuqtirsa yoki yuqtirish xavfi ostida qoldirsa, unga nisbatan jinoiy javobgarlik belgilangan. Bu BHMning 59 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki 240 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki 2 yilgacha axloq tuzatish ishlariga jalb qilinishi, yoki 1 yildan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishga sabab bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2000-2005)
2. Tibbiyot ensiklopediyasi. (2000-2005)
3. Gazeta.uz
4. Kun.uz



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES